



O'ZMU XABARLARI

ВЕСТНИК НУУЗ

АКТА NUUZ

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN

2023
1/11/1

Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar turkumi

Bosh muharrir:

I.U.MADJIDOV – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Y.S.ERGASHOV – f-m.f.d., professor.

R.X. SHIRINOVA – fil.f.d., professor

Tahrir hay'ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.

Ashirov A.A. – t.f.d., prof.

Balliyeva R. – t.f.d., prof.

Malikov A.M. – t.f.d., prof.

Yusupova D.Y. – t.f.d., prof.

Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.

Mo'minov A.G. – s.f.d., prof.

Nishonova O.J. – f.f.d., prof.

Abdullayeva N.B. – f.f.d., prof.

Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof.

Tuychiyev B.T. – f.f.d., prof.

Utamuradov A. – f.f.n., prof.

Muxammedova D.G. – psix.f.d., prof.

Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.

Mengliyev B.R. – fil.f.d., prof.

Sa'dullayeva N.A. – fil.f.d., dots.

Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., PhD.

Mas'ul kotib: Z.A.PARDAYEV

TOSHKENT – 2023

MUNDARIJA

Tarix

Abdullaev B. Zardusht 29-qo'shig'i xususida ba'zi mulohazalar	5
Allaberganov Sh., Jumanazarovna F. Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazmda aloqa tizimida faoliyat yuritgan xodimlar	8
Burxonov I. Tarixchi olim A.O'rinboyev ilmiy merosida katalog masalasi tarixidan	11
Jumaeva Sh., Qobilov E. Toshkent vohasi ziyoratgohlari to'g'risidagi yozma manbalar	14
Zaripboyeva U. Xonqa tumanidagi muqaddas qadamjolar.....	17
Ismatova Z. Buxoro vohasi toponimlarining manba va adabiyotlarda yoritilishi	20
Karimova M. Ayollar ishtirokida o'tkaziluvchi bir marosim xususida (Farg'ona vodiysi misolida)	23
Qobilov E., Ashurova U. Uzoq Sharqdan O'zbekiston SSR ga deportatsiya qilingan koreyslarning tarixshunosligi.....	26
Muxiddinova M. Mang'itlar davrida oliy ta'lim maskanlari va ularning ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o'rni	29
Namazova U. From the history of Samarkand institute of veterinary medicine, animal husbandry and biotechnologies: history of the first half of the XX century.....	34
Normurodov D. Toshkent vohasining Turk xoqonligi davri "Tosh haykal – balbal"lari xususida	37
Olimov I. O'zbekistonning atrof-muhitni muhofaza qilish borasida xalqaro hamkorliklarining ahamiyati	41
Omonov D. Xo'ja Rushnoi arxeologik yodgorligidan topilgan bosma naqshli sopol buyumlar	45
Ro'ziboyev T., Baxriddinov N. Kochaksoy yangi qoyatosh rasmlari dastabki tadqiqotlari xususida	49
To'raxo'jaev S. Turkistondan harbiy asirlar reevakuatsiyasi	52
Xolliyev A. Rossiyada xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi aksiyadorlik kompaniyalar faoliyatining qonunchilik asoslari (XIX – XX asr boshlari).....	56
Xushboqov P. Sherobod sho'rolar davrida	59
Egamov N. Kutubxonachilikni rivojlantirish va kitobxonlikni oshirish masalasi tadqiqotchilar nigohida	62
Ernazarov T. Economic and political order of the Russian empire in Turkestan: analysis of the creation and activities of the customs service	65
Yusupova G. O'zbekiston ijtimoiy – iqtisodiy hayotida Farg'ona iqtisodiy rayonining o'rni (XX asrning 50-80 yillari) ..	68
Falsafa. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. Sotsiologiya. Siyosiy fanlar. Islomshunoslik	
Abdullayev A. Abu Rayhon Beruniyning aniq fanlar, tabiiy va ijtimoiy fanlarga oid ilmiy qarashlarining g'arb sivilizatsion jarayonlariga metodologik ta'siri.....	71
Abdullayev S. Yangi O'zbekistonda ta'lim va bandlik: bandlikni oshirishning ijtimoiy mexanizmlari	74
Abdullayev X. O'zbekiston- Qirg'iziston munosabatlari.....	77
Abdunazarova Z. Theoretical background of teaching and enhancing productive speech in specialized language universities.....	80
Abdurasulova Sh. Kredit-modul tizimida bo'lg'usi o'qituvchilarda muloqot kompetentsiyalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	82
Abdusamatov X. Oilalarga psixologik xizmat ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari	85
Avliyaqulov T., Bo'rieva D. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini tarbiyalashda maktab va oila o'rtasidagi o'zaro munosabatlar	88
Alimov M. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda mediata'limdan foydalanishning afzalliklari (Boshlang'ich ta'limda axborot texnologiyalarini o'qitish fani misolida)	91
Amonov M. Ekoturizm tizimida ijtimoiy tarmoqlarning o'ziga xos falsafiy xususiyatlarini takomillashtirish zaruriyati ..	94
Arzibayev Q. Sport faoliyati motivlarining dinamik namoyon bo'lishi.....	96
Achilova M. Pedagoglarda empatiya hissinin rivojlantirishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar	99
Berdiyev F. Ijtimoiy tartib o'lchovlarining mazmun-mohiyati	102
Boboqulova X. Milliy o'zlikni anglashdan milliy tiklanish sari ijtimoiy yuksalish	104
Botirova D. Pedagoglarda kasbiy so'nish muammosining ijtimoiy-psixologik tatqiqi va asoslari	107
Buronova G. Mathematical and statistical analysis of the use of virtual pedagogical tools in teaching robotics	110
Gaybiyeva M. O'zbekiston rivojlanishining yangi bosqichida professional ta'lim tizimi uchun pedagoglar tayyorlashdagi muammo va yechimlar	113
G'ofirov M. Muhandislik yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarining umumkasbiy tayyorgarligi talablari	116
Давронова Ф. Значение имитационной моделей в преподавании химии	118
Dadajonova F. Saylov tarixida qonun va ahloq munosabatlari	121
Jabborov I. Hozirgi zamon oilalarida er-xotin munosabatlariga xos inqiroz shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	123
Jumayev X. Shaxs xotirasini rivojlantirishning nazariy jihatlarini	126
Jumaeva G. Qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida keksalarning ijtimoiy moslashuv muammolari	128
Jo'raboyeva M. Conceptual foundations for the formation of economic education in cadets on an integrative approach ..	130
Zakirova F. IIV xodimlari va kursantlari tibbiy kompetentligining o'ziga xos xususiyatlari.....	133
Ibodov M. Shaxsda ma'naviy sifatlarining tarkib topishida Imom Termiziyi hadislarining ahamiyati	136
Ibodullayeva I. Zamonaviy maktab o'qituvchisi va o'quvchilari munosabatlarining psixologik xususiyatlari shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar	138
Irgashov G. Talabalar faolligini oshirishda interfaol ta'lim usullarining ahamiyati	141
Isomiddinov E. O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlarini isloh qilishning konseptual asoslari	144
Ishankulova G. Sharq mutafakkirlari asarlarida gender munosabatlarining ijtimoiy psixologik omillari	147
Kadirova X. O'zbek tilini o'qitishda o'yin texnologiyasining o'ziga xos yondashuvlari	150
Kariyeva D. Methods of teaching economical terms	153
Karimova K. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini nostandart masalalar yechishga o'rgatish	156
Karimova M. Biologiya fanidan talabalarni metodik tayyorgarligini amalga oshirishning nazariy asoslari	159

Karimova S. Yangi O'zbekiston strategiyasida mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari	162
Qozoqboyeva D. Formation of tolerance in the process of foreign language traning	165
Qoraboyev N. Akademik Said Shermuhamedov hayoti va ijodini o'rganish masalasiga doir	168
Kutlimuratova N. Husayn Voiz Koshifiy aql va ilmning inson hayotidagi o'rni haqida	170
Латинова Н., Юлдашева Ю. Особенности построения семейных отношений женщин с инвалидностью в Узбекистане	172
Mamadiyarov O'. Sud-psixologik ekspertizasining huquqiy asoslari	175
Madatov Kh., Sattarova S. Vectorization of uzbek texts using the TF-IDF vectorizer method	177
Mahkamova D. Xotin-qizlarning davlat xizmatlariga muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvi mehnat samaradorligi omili sifatida	181
Miliorov X. Ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning umumiy texnologik kompetensiyasini shakllantirish metodikasini takomillashtirish	184
Mirvaliyev F. Jürgen koppensteinerning chet tillarini o'qitishda adabiyot fanidan foydalanishning nazariy tadqiqi	187
Muradova F., Aslonova G. Zamonaviy o'quv adabiyotlarni yaratishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	189
Nasriddinov D. Fizika fanidan mobil ilovalar hamda robototexnik tizimlarni loyihalash usullarining ilmiy-pedagogik asoslari	192
Nekboyev X. Mediata'limning rivojlanish tarixi va mediasavodxonlikni o'zlashtirish tizimining asosiy jihatlari	195
Norqobilova R. Bolalarning maktabga tayyorgarligini xorijiy fanlardan diagnostika qilishning ahamiyati	198
Normuminova D. Shaxs xavotirlanishi va agressivligining ijtimoiy psixologik xususiyatlari diagnostikasi	200
Nosirov O'. Kutubxona-axborot muassasasi faoliyatida ziddiyatlarni hal etish va stresslarni boshqarish	202
Odilova H. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axborot muhitida tevarak-atrofga ekologik munosabatga integrativ yondashuvning o'rni	205
Olimov I. O'zbekistonning atrof-muhitni muhofaza qilish borasida xalqaro hamkorliklarining ahamiyati	208
Ortiqova Z. Bola tarbiyasida islom ma'naviy-axloqiy o'g'itlarining ijtimoiy mazmuni	211
Ortiqova N. Ta'lim kontekstida "gender" tushunchasining pedagogik mohiyati va xarakteristikasi	213
Rajabov M. Maktab o'quvchilarda grafik tayyorgarlikni shakllantirishning tashkiliy funksional modeli (10-va 11-sinflar misolida)	216
Rajabov S. Zamonaviy davrda barkamol shaxs tafakkurini shakllantirishning ilmiy asoslari	219
Raximov X., Tursunov I. Geometriya fanida dasturiy vositalardan samarali foydalanish	221
Рахимова Н. Дидактические возможности развития английской языковой компетенции будущих медицинских специалистов	223
Raxmatova N. Kreativ fikrlash rivojlanishi-psixologik fenomen sifatida	226
Ruziyev R. Raqamli texnologiya vositalariga asoslangan darslarini loyihalashda multimedia ta'lim muhitining didaktik xususiyatlari	228
Samatov D. Pedagogik oliy ta'limda falsafa fanini o'qitishning didaktik tamoyillari	231
Safarova Z. Rus tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarning lingvomadaniy kompetentligini rivojlantirish muammosi	234
Sodiqova Sh. Fizika ma'ruzalarida talabalarning kreativ foliyatini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish	237
Subhonova A. Problems and solutions of teaching english to young children as a foreign language	240
Sultanova Sh. Ijtimoiy psixologik xususiyatlar – xotin-qizlarning jamiyatda faolligi determinanti sifatida	243
Талапов Б. Вопросы демократии и демократического развития в конституции Кыргызстана: реальность и перспективы	246
Teshaboev M. O'zbekistonda ijtimoiy adolatni qaror toptirishning stratejik yo'nalishlari	248
Tilavova U. Yoshlar ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	251
Tleubayeva G. Iqtidorli talabalarni aniqlashda nazorat testlarining o'rni	254
Tog'ayev N. Hadis ilmida ilmu-ma'rifat va ta'lim-tarbiyaga oid o'g'itlar bayoni	257
Tojiboyev M. Ta'lim-tarbiya tizimini innovatsion rivojlantirishda xorij tajribasi	260
Toshev S. Fizika darslarida "Yarimo'tkazgichlar" mavzusini o'qitishda talabalarni evristik faolligini rivojlantirish metodikasi	263
Turdiyeva D. Dinshunoslik fanining yuzaga kelishi va rivojlanishi	266
Tursinova Z. Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarning pedagogik mahoratini baholash mexanizmi takomillashuvining kognitiv tahlili	268
Tursunova Sh. Yot g'oyalarga qarshi mediata'limni shakllantirish	270
Umarov B. Pedagogika fan tarmog'i bo'yicha falsafa doktorlarini tayyorlashda Buyuk Britaniya tajribasi	273
Файзуллаева К. Реформы в сфере образования	276
Fozilov F. Bo'lajak shifokorlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari	279
Xaytmetov R. Talabalarning rivojlanish vektorini to'g'ri aniqlashtiruvchi pedagogik mexanizmlar	281
Khandamova M. Scientific activity of Abu Rayhan Beruni and his attitude towards religion	283
Xodjaeva S. Talabalarda mustaqil fikrlash jarayonini shakllantirishda psixologik savodxonlikni o'rni	285
Kholikova M. The importance of interactive methods in the development of reading skills in teaching english	288
Xoliqova P. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda milliy ma'naviy merosimiz va sharq mutafakkirlarining merosidan foydalanish	291
Xomidchonova Sh. Simulyatsiya yordamida tibbiy biologiyani o'rganish	293
Cho'liyeva V. Bahouddin Valadning hayoti va falsafiy ta'limoti	295
Shodiyeva N. Nikoh mustahkamligiga ta'sir etuvchi ommillarning psixologik xususiyatlari azalar	297
Shodmonqulova M. O'zbekistonda o'rta sinfni shakllantirish liberalizm g'oyalarining o'rni	300
Shomirzaev N. Yot g'oyalar ta'siriga tushgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va ijtimoiylashtirish masalalari	303
Shonazarova S. Boshlang'ich ta'limda geografik tushunchalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari	306
Eshkuvatov J. Kreativ ta'limning pedagogik amaliyotdagi zaruriy ahamiyati	308



Nodirjon TOG'AYEV,
Samarqand davlat universiteti dotsenti falsafa doktori (PhD)

SamDCHTI professori, f.f.d O.G'aybullayev taqrizi asosida

HADIS ILMIDA ILMU-MA'RIFAT VA TA'LIM-TARBIYAGA OID O'GITLAR BAYONI

Аннотация

Ushbu maqolada boy ma'naviy merosimizda hadislarining tutgan o'rni va ro'li hamda uning xalqimizni poklikka, ilmiy, iymonli, e'tiqodli, vijdonli va insofli bo'lishga davat etgan odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga oid pand-nasihatlari bayon etilgan. Shu bilan birgalikda hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy ma'naviy merosini chuqur o'rganish, tahlil etish va hadislarida bayon etilgan g'oyalardan inson o'z faoliyati davomida kerakli xulosalar chiqarish, hayotda uni tatbiq etish va foydalanish eng muhim hayotiy vazifalardan biri ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Islom dini, Hadis, Imom Buxoriy, ilm, iymon, e'tiqod, halollik, poklik, tinchlik, odob-axloq, ta'lim-tarbiya.

УЧЕНИЕ О ПРОСВЕТЛЕНИИ И ОБРАЗОВАНИИ В ХАДИСАХ

Аннотация

В данной статье исследуется роль и значение хадисов в богатом духовном наследии, особенно в контексте нравственности и воспитания. Автор подчеркивает, что хадисы призывают народ к чистоте, знанию, верности, совести и честности, предоставляя руководство и советы. Особое внимание уделяется изучению и анализу духовного наследия Имама Бухари - султана науки о хадисах, и извлечению практических выводов из идей, содержащихся в хадисах, чтобы применять их в повседневной жизни. Статья призывает к глубокому исследованию и использованию хадисов для достижения нравственного роста и духовного развития.

Ключевые слова: Ислам, хадисы, Имам Бухари, наука, вера, честность, чистота, мир, нравы, образование.

TEACHING ABOUT ENLIGHTENMENT AND EDUCATION IN HADITH

Annotation

This article explores the role and significance of hadith in a rich spiritual heritage, especially in the context of morality and education. The author emphasizes that the hadiths call people to purity, knowledge, fidelity, conscience and honesty, providing guidance and advice. Particular attention is paid to the study and analysis of the spiritual heritage of Imam Bukhari - the sultan of the science of hadith, and the extraction of practical conclusions from the ideas contained in the hadith in order to apply them in everyday life. The article calls for deep study and use of hadith to achieve moral growth and spiritual development.

Key words: Islam, hadith, Imam Bukhari, science, faith, honesty, purity, peace, morals, education.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda boy tarixiy ma'naviy merosimizni tiklash, milliy o'zlikni anglash, fuqarolar ongi va tafakkurida milliy g'urur va iftihar tuyg'ularini shakllantirish va yuksaltirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ma'naviy meros xalqning muqaddas xotirasi bo'lib, unda xalq yoki millatning insoniyat sivilizatsiyasi tarixiy taraqqiyotida tutgan o'rni va mavqeyi belgilanadi. O'zbekistonda ma'naviy meros va milliy qadriyatlarini tiklash va rivojlantirishga nisbatan aksiologik yondashuv shakllantirilgan bo'lib, ma'naviy merosni qadriyatlar nuqtai nazaridan tahlil qilish har bir muayyan qadriyatning taraqqiyotdagi o'rmini to'g'ri baholash imkoniyatini beradi. Tarixiy ma'naviy merosimizda hadislarining tutgan o'rni va ahamiyati katta bo'lib, bugungi kunda, barkamol insonni tarbiyalashga qaratilgan davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatda ham ushbu masalaga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Imom Buxoriy va Burhoniddin Marg'inoniy, Hakim Termiziy, Mahmud Zamaxshariy va Qaffol Shoshiy, Bahouddin Naqshband va Xoja Ahror Valiy, Muhammad Shorshiy va Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiy kabi ko'plab daholar nomi jahon sivilizatsiyasi tarixida oltin harflar bilan bitilgan... Ularning hayoti va ma'naviy merosini keng o'rganish va hayotga tatbiq etishda bugungi kunda ham insoniyat katta ehtiyoj sezmoqda"[1].

Xalqimizning qadim-qadimdan amal qilib kelayotgan axloq-odob fazilatlarini ma'naviyatimizning asosini tashkil etgan. Ayniqsa, "Qur'oni Karim" va "Hadisi sharif"lar, tasavvuf kabi umrboqiy sarchashmalar avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ko'hna asarlar sifatida bebahodir. Ma'lumki, Islom dini insonni ma'naviy kamolot sari yetaklovchi ta'limot. Shu sababli Qur'oni Karimda ham, hadislarida ham yaxshi xulq va odob keng targ'ib etilgan. Shariat talablari bilan bir qatorda, hadislarida axloq qadoirlari, ayniqsa muhimdir.

Hadis Qur'ondan keyingi muqaddas manba sifatida Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning hayotlari, faoliyatlari va ko'rsatmalari haqidagi manba sifatida muhim ahamiyatga egadir. Hadislarida Qur'ondan keltiriladigan g'oyalarning deyarli hammasi o'z aksini topgan bo'lib, u yerdagi ma'lumotlar Shunisi bilan farq

qiladiki, ularda muhim jihatlarga izox berilib sodda qilib tushuntirilgan.

Islom olamida IX asr hadis ilmi rivoji uchun oltin davr hisoblanadi. Bu davrda hadis to'plash sohasida "musnad", "sahih" va "sinan" deb atalgan turli yo'nalishlar vujudga keldi. Eng to'g'ri, ishonarli hadislar kiritilgan "sahih" yo'nalishiga muhaddis olim Imom Ismoil al-Buxoriy asos solgan. Imom Buxoriy 10 yoshidanoq hadislarini yod olish qobiliyatiga ega bo'lgan, 16 yoshida payg'ambarimiz izdoshlarining kitoblarini o'rganishga kirishgan. Shu vaqtda onasi uni akasi Ahmad bilan hajga olib boradi va bir necha yilular Makkada yashaydilar. Bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan mashoyixlarning ilmiy yig'inida qatnashadi. Bu vaqtda Rasulullohning sahobalari, sahobalarining izdoshlari turli mamlakatlarga tarqab ketgan edilar. Shunday sharoitda payg'ambarimizning hadislarini to'plash turli shahar va mamlakatlarga borishni taqozo qilaredi. Bir necha tarixchilarning ta'kidlashicha Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif va Jiddaga qilgan safari 6 yil davom etgan. So'ng Basra, Kufava Bag'dodga safar qiladi. Shom va Misrga o'tadi.

Tadqiqot metodologiyasi. U o'zining butun umrini Muhammad alayhissalom hadislarini to'plash, uning pokiza salohiyati va sofligini tiklash, islom dunyosida uni targ'ib qilishga bag'ishlaydi. Olimlarning ta'kidlashicha, "Bu sharaflig'ish hijratning uchunchi asriga kelib keng quloq yo'gan. Islom olamining o'sha paytdagi madaniy markazlari sanalgan Bag'dod, Kufa, Basra, Damashq, Buxoro, Samarqand, Urganch, Temiz kabi shaharlarda hadis fani bilan Shug'ullanuvchi muhaddislar ko'p bo'lgan"[2].

Imom Buxoriy hadislarida o'z boyligini muhtoj va g'ariblar bilan baham ko'ruvchilar, yetim-yesirlarga yordam qiluvchi saxiy kishilarning xatti-harakati ezigulik va insonparvarlikning oliy namunasi sifatida tilga olinadi. Shuningdek, ochlarni to'ydirish, bemorlar holidan xabar olish, qiyinchiliklarga duchor bo'lganlarga yordam berish, ayniqsa qarindoshlar, yaqin odamlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular bilan aloqada bo'lish keltiriladi.

Imom Buxoriyning 4 jildlik "Al-Jomi'as-sahih" (Ishonarli hadislar) deb nomlangan hadislar to'plami islom olamida boshqa muhaddislar tuzgan hadislar to'plami orasida eng ishonarli va mukammalidir. Bu asarda payg'ambar sallallohu alayhi vasallam

hadislaridan tashqari, fiqh, islom marosimchiligi, axloq-odob, ilmi nujum (astronomiya), tadbirkorlik, ta'lim-tarbiya, tarix, etnografiya doir ilmiy ma'lumotlar ham o'z aksini topgan. 600 ming hadisidan faqat 7275 tasi kiritilgan bu hadislar to'plamida hozirgi davr uchun ham nihoyatda zarur va dolzarb bo'lgan 1000 dan ortiq diniy-ilohiy, dunyoviy-ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy, aksiologik va ijtimoiy adolat va hamkorlik masalalari haqida muhim yo'nalishlar keltiriladi.

Tahlil va natijalar. Hadislarda tahlil etilgan g'oyalarda inson hayoti bilan bog'liq bo'lgan barcha narsalar haqida ma'lumotlar berilgan. Masalan, hadislarining eng muhim jihatlardan biri ilm fanga e'tiborning qaratilganligi bilan muhimdir. Imom Buxoriy qarashlarining asosida ham ilmning qudratiga bo'lgan xayrixohlik yotadi. Uning uchun ilm hamma narsaning asosi har qanday taraqqiyotning boshlanishidir. Ilm inson uchun nafaqat ma'naviy-ilohiy-ruhiy qudrat balki jismoniy-ruhiy barkamollik va haqiqatga erishish yo'lidir. Shuning uchun ham u "Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmag'ay" degan qoidani ilgari suradi va unga o'zi ham amal qiladi.

Hadislarda inson ilmni faqat boshqalarga da'vat qilmasdan, o'zi ham ilmga amal qilishga chaqiriladi. "Ilmga nisbatan go'yo cho'pon kabi posbon bo'linglar, lekin ilmni faqat rivoyat qiluvchi bo'lmanglar!" [3] – deyiladi. Insonning ilmni o'rganib, uni boshqa odamlarga o'rgatishi hadislarida qo'llab-quvvatlanadi. Ilmga ega bo'lib, uni boshqa odamlarga o'rgatmaslik esa qoralanadi. Ushbu masalaga tegishli hadisda quyidagi fikrlar bayon qilingan. "Ilmni o'rganib, so'ng uni boshqalarga o'rgatmaslik go'yoki molu dunyoni yig'ib, uni sarf qilmay, ko'mib qo'yish bilan barobardir" [4]. Hadislarda xalq o'rtasida ilmu-ma'rifatni targ'ib va tashviq qilishda olimlarning mas'uliyati masalasiga ham e'tibor qaratilgan. "Olimlar xalq orasidagi Allohning omonatini xalqqa yetkazuvchi kishilardir" [5] – deyiladi. Inson doimo ilmga intiladi, hayotning sir-asrorlarini faqat ilm orqali bilib oladi. Ilm olishga rag'bat islom dunyosida juda keng targ'ib qilinadi.

"Garchi Xitoyda bo'lsa ham ilmga intilganlar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo'minga farzdir" [6]. "Bir soatgina ilm o'rganish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa u choy tutilgan nafl ro'zadan afzaldir" [7]. Shariatda farz amallar har bir musulmon uchun albatta bajarilishi zarur bo'lgan amallar bo'lib hisoblansa, islom dini har bir insonni ilm olishga da'vat etadi. Ilm olishning ibodatdan afzalligi to'g'risidagi fikr esa insonni doimo ilm olishga, dunyoqarashini kengaytirishga, adolatli jamiyat qurib farovon yashashga da'vat etadi. "Umuman olganda Islom dini insonni doimo ilm olishga da'vat etuvchi diniy ta'limot bo'lib, Qur'oni Karimda "ilm" so'zi – "alima" – bilmoq tarzida 750 marta uchrashi ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlab o'tilgan" [8].

Ilm oliyanob va savobli ish bo'lib, islom dinida ilm olish ibodat va taqvodan afzal deb hisoblanadi. Chunki ilm dinning asosini, ustunini tashkil etib, ma'naviy merosimizda "ilmi kalom", "ilmi rivoyat", "ilmi tavihd", "aqida ilmi" kabi diniy ilmlar bilan birga, insonning dunyoni aql yordamida bilishiga asoslangan "ilmi hikmat" yo'nalishi paydo bo'lib, dunyoviy ilmlarning rivojlanishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatdi. Umuman islomda ilm-fanni egallash, ma'rifatli bo'lish juda savobli ekanligi qayta-qayta ta'kidlanib, hadislarida "Beshikdan to'qabrgacha ilm izlash lozimligi" qayd qilinishining o'zi juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Hadislarda inson yoshlikdan ilm olishga da'vat etiladi. "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabi" [9] hadisida ushbu masalaga asosiy e'tibor qaratilgan.

Ilm olish inson yuksak madaniyat va taraqqiyotga erishib boriladi. Inson bilimsiz hech qanday taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Jaholat, bilimsizlik insonni saodatmand qilmaydi, balki hayvonsifat qiladi. Shubhasiz, inson aqli tomonidan biror narsaning bor yoki yo'qligi dalil asosida isbotlansa, bilimga aylanadi. Bilimning ma'nosi inson tomonidan haqiqatni anglashdir. Inson kamolotida ilm egallash ulkan fazilatlardan biridir, chunki inson ilm bilan ulug'vorlikka erishadi.

Imom Buxoriy hadislarida: "Ilmga ilm olmoq yo'li bilan erishilg'aydir" [10] – deyiladi. Ilmli kishilar mamlakat taraqqiyotini yuksaltirishga xizmat qiladi, chunki mamlakat taqdiri, istiqboli bilimli kishilar faoliyatiga bog'liqdir. Jamiyatda qanchalik ilmli kishilar ko'payib borsa mamlakat shunchalik ravnaq topadi va mamlakatda barqarorlik muvozanat yuzaga kelib, taraqqiyot oldinga qarab tez yuksaladi. Darhaqiqat, insonlar ongida ilmning rivojlanishi oz-oz ilmi egallashdan ko'proq ilm egallashga qarab rivojlanishi, hamda narsa-hodisalarning mohiyatini anglashga qarab borishi izohlangan.

"Ilmning ofati – esdan chiqarmoqlik va ilmga rag'bat bo'lmagan kishilarga o'rgatish esa uni zoye qilmoqlikdir" [11] – deyilgan. Ilm egallashga intilish maqsadibo'lmagan insonlarga vaqt sarflash foydasizligi e'tirof etilgan. Shu bilan birgalikda hadisda ilm

egallash zaxmatli murakkab jarayon ekanligi, unga erishish insondan katta mehnat talab etilishi, bunga sabr-toqat va faol mehnati orqali erishishga da'vat etilgan. Eng muhimi hadislarida har qanday holatda bo'lsa ham insonlarni ilm egallashga chorlagan.

Al-Buxoriy hadislarida, "Sen bilan men bilgan ilm chumchuq dengizdagi suvni cho'qilib ozaytirilmagani yanglig', Olloh ilmni hech kamaytirilmag'ay" [12] degan iborada chumchuq dengiz suvi qanchalik bepoyon bo'lganligi tufayli uning suvini kamaytira olmaydi, inson ham bu bepoyon dunyoning mohiyatini oxirigacha bilib ulgura olmasligini obrazli qilib ifodalagan. Darhaqiqat, hadislarida "ilm egallang! Ilm-sahroda do'st, hayot yo'llarida – tayanch, yolg'izlik damlarida yo'ldosh, baxtiyori daqiqalarida - rahbar, qayg'uli onlarda - madadkor, odamlar orasida zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda - quroldir" [13] – deyilgan.

Mustaqillik sharofati o'laroq o'zbek falsafasining tarixini o'rganish bilan bir qatorda bobolarimiz yaratgan boy ma'naviy merosi, xalqimizning dunyoqarashi va falsafasi bilan bog'liq mavzularni chuqur tadqiq qilish imkoniga keng yo'l ochildi. Imom Buxoriyning o'lmas merosi el-yurt bag'riga qaytdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini nishonlash to'g'risida" gi qarori (1997 yil 29 aprel) asosida Imom Buxoriyning ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. "1998 yil 23 oktabrda Samarqandda yubiley to'y-tantanalari bo'lib o'tdi. Alloma abadiy qo'nim topgan Chelak tumanidagi Xartang qishlog'ida ulkan yodgorlik majmui ochildi" [14].

O'tmishda asossiz utilgan ko'plab allomalimiz qatori Imom al-Buxoriy ham o'z eliga qaytarildi. Asarlari o'rganilib, keng jamoatchilikka taqdim qilindi. "Hazrat Imomal-Buxoriy nafaqat o'zbek xalqi, balki butun islom olamining faxridir. Bu buyuk insonning hayoti tom ma'noda ilmiy va insoniy jasorat, sobitiroda namunasi, yuksak e'tiqod timsolidir. Islom olamida Qur'oni karimdan keyin eng ishonchli manbaa sanalgan "Al-Jomi'assahih" hadislar to'plami u zoti sharif bashariyatiga qoldirgan ulkan merosning gultojidir. Butun dunyo musulmonlari yakdillik bilan ta'kidlashlaricha, insoniyat yaratgan kitoblar orasida eng buyugi mana shu "Al-Jome' as-sahih"dir" [15].

Bundan tashqari Imom al-Buxoriyning dunyo madaniyati xazinasiga qo'shgan ulkan hissasini hisobga olib, uning bashariyatga qoldirgan boy ma'naviy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish hamda ezgulik va ma'naviy komillikka yetaklovchi g'oyalarni vatandoshlarimiz, ayniqsa, farzandlarimiz ongu g'ururiga teran singdirib borish maqsadida Imom Buxoriy majmuasi qoshida yurt boshimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan Xalqar oilmiy tadqiqot markazi barpo etildi.

Birinci Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Buyuk mutafakkir va allomalimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo'shgan betakror hissasi haqida so'z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida "muhaddislar sultoni" deya ulkan Shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo'tabor zot merosining gultoji bo'lmish – "Al jome' as-sahih" kitobi Islom dinida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, ahli Islom e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi" [16]. Bu ulug' allomaning ijodini o'rganish butun musulmon olamini doimo qiziqitirib kelgan.

Demak Imom Buxoriy singari ajdodlarimizning ibratlarga to'la hayot yo'llari, boy ilmiy, ma'naviy merosini chuqur o'rganish, ularni keng xalq ommasi, ayniqsa, yoshlarimizni xabardor qilish nafaqat barkamol avlod tarbiyasi, balki yurt ravnaqi, xalq tinchligi yo'lida amalga oshirilgan xayrli ishlardan hisoblanishi Shubhasiz.

Bu daholar tomonidan yaratilgan ma'naviy meros insonlarni doimo yaxshilikka, ezu ishlarni amalga oshirishga xizmat qilgan. Oqibatda, bu zaminda ilm fan, madaniyat uzluksiz tarzda yuksalgan. O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Haqiqatdan ham, azaldan turli savdo yo'llari, madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan.... Bu qutlug' zamindan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Abu Ali Ibn Sino, Aduxoliq G'ijduvoni, Mirsaid Kulol, Xo'ja Orif Revgariy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk mutafakkirlarning nomlari, ularning boy merosi butun sharq va g'arb olamida mashhurdir. ...Biz mana shunday ulug' allomalimiz bilan, ularni kamolga yetkazgan ona zaminimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Darhaqiqat, o'tmishda qancha-qancha sinov va qiyinchiliklarga duch kelmasin... Ilm-ma'rifat, madaniyat va san'at daryosi hech qachon to'xtagan emas ...Ko'plab ma'rifat fidoyilarining ibratli hayoti bugungi kunda hamyurtimizdagi yangi jamiyat barpo etish, barkamol avlodni tarbiyalash,

ma'naviyatimizni yuksaltirishda bizga beqiyos kuch bag'ishlab kelmoqda"[17]. Shubhasiz hamma davrlarda ilm-fan rivojlanishi asosida jamiyatlar taraqqiy etadi. Shuning uchun ham mamamlakatlar yuksalishini ta'minlash uchun ilm fanni rivojlantirishga qaratilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida Shuni ta'kidlash lozimki, ulug' yurtdoshimiz Imom Buxoriy butun umrini umuminsoniy axloqiy qadriyatlarini tiklash, mustahkamlash va kelgusi avlod uchun tuhfa qilib qoldirish, butun dunyo musulmonlarida olijanob xislatlarni tarkib toptirishga bag'ishlagan. Ularni pokizalikka, iymonli, e'tiqodli, sof vijdonli va insofli bo'lishga da'vat etgan. Ulug' mutafakkirning axloq-

odob va ta'lim-tarbiyaga oid pand-nasihatlarini va o'gitlari mustaqilligimizni mustahkamlash, yosh avlodni illatli va qabih yo'llardan qaytarishda, shubhasiz, o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi, albatta.

Imom Buxoriyning mehnatlari tufayli qoldirgan ma'naviy merosini o'rganish, tahlil etish, umumlashtirish, undan tegishli amaliy xulosalar chiqarish va hadislarida bayon etilgan g'oyalardan inson o'z faoliyatida kerakli xulosalar chiqarish va hayotda uni tatbiq etib foydalanish va targ'ib etish eng muhim hayotiy vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Президент Ш.М.Мирзиёевнинг “Таълим ва маърифат – тинчлик ва бунёдкорлик йўли” мавзuida бўлиб ўтган Ислох ҳамкорлик ташкилотига аъзо давлатларнинг Ташқи ишлар вазирлари кенгашининг 43-сессиясида сўзлаган нутқи. Халқ сўзи, 2016 йил, 19 октябрь.
2. Иброҳимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996. 108-бет.
3. Уватов У. Иймон нури. – Т.: “Ёзувчи”, 1996. 118-бет.
4. Уватов У. Иймон нури. – Т.: “Ёзувчи”, 1996. 136-бет.
5. Юз бир ҳадис ва унинг шарҳи. – Тошкент: “Меҳнат”, 1991 йил. 27-бет.
6. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. – Тошкент: “Фан”, 1990 йил. 32-бет.
7. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. – Тошкент: “Фан”, 1990 йил. 104-бет.
8. Носирхўжаев С.Х., Лафасов М.Ф., Зарипов М.З. Маънавият асослари. – Тошкент: “Шарқ”, 2005 йил. 158-бет.
9. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. – Тошкент: “Фан”, 1990 йил. 108-бет.
10. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад Ибн Исмоил ал-Бухорий. Ҳадис. 1-жилд. Ал-Жоме Ас-Саҳиҳ.– Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1997 йил. 32-бет.
11. Шайх Абдулазиз Мансур. Минг бир ҳадис. – Т.: Ғофур Ғулом нашриёти, 2017 йил. 51-бет.
12. Шайх Абдулазиз Мансур. Минг бир ҳадис. – Т.: Ғофур Ғулом нашриёти, 2017 йил. 47-бет.
13. Муҳаммад пайғамбар кассаси. Ҳадислар. – Т.: 1991 йил, 43-бет.
14. Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. I-том. - Т.: “Шарқ”, 2016. 281-282-бетлар.
15. Каримов И. ЮНЕСКО Ижроия Кенгаши 155-сессиясининг якунловчи мажлисида сўзланган нутқ. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т.7. - Т.: “Ўзбекистон”, 1999. 197-бет.
16. Каримов И. Юсак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: “Маънавият”, 2008. 38-бет.
17. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017 йил. 145-146-бетлар.